

B-01-03/679
19.12.2025-yil

"TASDIQLAYMAN"
Viloyat hokimi,
Komissiya raisi

M. Azimov
2025-yil "19" dekabr

Ijtimoiy ehtiyojmand oila vakillari, yetim yoki ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan talaba xotin-qizlarning oliy ta'lim olishini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash yuzasidan tavsiyanoma berish bo'yicha viloyat komissiyasining yig'ilish
BAYONI B-01-03/679

2025-yil "19" dekabr

Qarshi shahri

- Raislik qiluvchi:** - M. Azimov -viloyat hokimi - Komissiya raisi
- Taklif etildi:** - A. Qodirov -viloyat hokimining birinchi o'rinbosari,
Z. Aminova -viloyat hokimi o'rinbosari -oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig'i, tuman (shahar) hokimlari, viloyat komissiyasining a'zolari.

KUN TARTIBI:

Ijtimoiy ehtiyojmand oila vakillari, yetim yoki ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan talaba xotin-qizlarning oliy ta'lim olishini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida tavsiyanoma beriladigan xotin-qizlar ro'yxatlarini tasdiqlash to'g'risida.

(Azimov, Qodirov, Aminova, ..., Azimov)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 585-son qarori ijrosini ta'minlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining xatiga muvofiq, 2025/2026-o'quv yilida bazaviy to'lov-kontrakt asosida davlat oliy ta'lim muassasasining bakalavriat ta'lim yo'nalishiga (ta'lim shaklidan qat'iy nazar) talabalikka tavsiya etilgan, ikkinchi va undan yuqori bosqichlarda tahsil olayotgan 548 nafar talabgorlar ro'yxatlari tuman (shahar) komissiyalari tomonidan ko'rib chiqildi.

Ro'yxatda 2025/2026-o'quv yilida o'qishga kirgan 68 nafar, ikkinchi va undan yuqori bosqichlarda tahsil olayotgan 480 nafar bazaviy to'lov-kontrakt summalari to'lab berilishi belgilangan talabgorlar o'rganib chiqildi.

O'rganish natijasida 2025/2026-o'quv yilida o'qishga kirgan 68 nafardan 18 nafari, ikkinchi va undan yuqori bosqichlarda tahsil olayotgan 480 nafardan 116 nafari nizom talablariga mos ekanligi aniqlandi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan bildirilgan fikr va mulohazalardan kelib chiqib yig'ilish,

QAROR QILADI:

1. Viloyat hokimi o'rinbosari - oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig'i Aminovanning kun tartibidagi masala yuzasidan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ijtimoiy ehtiyojmand oila vakillari, yetim yoki ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan talaba xotin-qizlarning oliy ta'lim olishini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash yuzasidan tavsiyanoma berish bo'yicha tuman (shahar) komissiyasining yig'ilish bayonlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar:

2025/2026-o'quv yilida o'qishga kirgan 18 nafar bazaviy to'lov-kontrakt summalari to'lab berilishi belgilangan talabgorlar ro'yxati hamda ikkinchi va undan yuqori bosqichlarda tahsil olayotgan 116 nafar bazaviy to'lov-kontrakt summalari to'lab berilishi belgilangan talabgorlar ro'yxati **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2025/2026-o'quv yilida umumiy hisobda **134 nafar** talabgorlarning bazaviy to'lov-kontrakt summasi jami **1 127 759 126 (bir milliard bir yuz yigirma yetti million, yeti yuz ellik to'qqiz ming, bir yuz yigirma olti) so'm** (Qarshi shahar 17 nafar talabgorga 159 157 740 so'm, Shahrisabz shahar 5 nafar talabgorga 33 675 000 so'm, G'uzor tumani 10 nafar talabgorga 82 659 540 so'm, Dehqonobod tumani 8 nafar talabgorga 90 023 556 so'm, Qamashi tumani 14 nafar talabgorga 116 638 540 so'm, Qarshi tumani 15 nafar talabgorga 115 746 000 so'm, Kasbi tumani 4 nafar talabgorga 31 100 000 so'm, Kitob tumani 10 nafar talabgorga 86 216 040 so'm, Koson tumani 6 nafar talabgorga 43 556 040 so'm, Ko'kdala tumani 4 nafar talabgorga 32 700 000 so'm, Mirishkor tumani 4 nafar talabgorga 28 408 000 so'm, Muborak tumani 5 nafar talabgorga 40 566 000 so'm, Nishon tumani 10 nafar talabgorga 80 446 700 so'm, Shahrisabz tumani 9 nafar talabgorga 72 800 000 so'm, Yakkabog' tumani 13 nafar talabgorga 114 065 970 so'm) to'lab berilishi belgilab qo'yilsin.

Bunda, talabgorlardan 134 nafarini tanlab olishda birinchi navbatda ularning ijtimoiy holati, ehtiyojmandligi, to'plagan ballari, hududlardagi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kadrlarga bo'lgan ehtiyoj hamda tahsil olayotgan bosqichlari inobatga olinganligi ko'rsatib o'tilsin.

4. Viloyat komissiyasi (Z.Aminova):

bir kunlik muddatda bazaviy to'lov-kontrakt summalari to'lab berilishi belgilangan xotin-qizlarning tavsiyanomalarini tasdiqlash uchun ular ro'yxatlarini O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasiga belgilangan tartibda kiritish;

besh kunlik muddatda bazaviy to'lov-kontrakt summalari to'lab berilishi belgilangan xotin-qizlarning tasdiqlangan tavsiyanomalarini tegishliligi bo'yicha davlat oliy ta'lim muassasalariga yozma ravishda kiritsin va belgilangan tartibda shartnomalarni rasmiylashtirsin.

5. Viloyat komissiyasi (**Z.Aminova**) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 585-son qarori bilan belgilangan imtiyozlar va xotin-qizlarning ta'lim olishini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar xususida xalq deputatlari viloyat Kengashining navbatdagi sessiyasida keng jamoatchilikka axborot bersin.

6. Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari - viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig'i (**A.Qodirov**) mazkur bayonning 1-ilovasi bilan tasdiqlangan talabgorlarga 2025/2026-o'quv yili uchun bazaviy to'lov-kontrakt summasi **1 127 759 126** (bir milliard bir yuz yigirma yetti million, yeti yuz ellik to'qqiz ming, bir yuz yigirma olti) so'm mablag'ni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-20-iyun kunlari Qashqadaryo viloyatiga tashrif yuzasidan 29-son topshiriqlar bayonining 124-bandiga muvofiq, "Ayollar daftari" jamg'armasi mablag'lari hisobidan mablag' ajratish uchun viloyat hokimi qarori loyihasini tasdiqlash uchun kiritsin.


7. Tuman (shahar) hokimlari "Ayollar daftari" jamg'armasi hisobidan mablag' ajratilishini ta'minlasin va ajratilgan mablag'ni belgilangan tartibda o'tkazilishini nazoratga olsin.

8. Ushbu yig'ilish bayoni qarorining ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o'rinbosari **A.Qodirov** va viloyat hokimi o'rinbosari – oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig'i **Z.Aminova**lar zimmasiga yuklatilsin.

Bayonnomani rasmiylashtirdi



S.Musulmonov



(A. Qodirov)



(Z. Aminova)

**VM-585-sonli qaror bo'yicha to'lov kontrakti
to'lab beriladigan xotin-qizlar to'g'risida
MA'LUMOT**

№	Hudud nomi	Nomzodlar soni	Tavsiya etiladiganlar soni	шундан		Jami summa
				1-kurs	2, 3, 4, 5-kurs	
Вилоят бўйича		548	134	18	116	1 127 759 126,0
1	Qarshi shahar	47	17	2	15	165 283 096,0
2	Shahrisabz shahar	18	5	0	5	38 500 000,0
3	G'uzor tumani	52	10	2	8	86 216 040,0
4	Dehqonobod tumani	24	8	4	4	60 706 040,0
5	Qamashi tumani	53	14	3	11	112 420 700,0
6	Qarshi tumani	57	15	1	14	113 123 000,0
7	Kitob tuman	16	4	0	4	34 200 000,0
8	Koson tumani	44	10	0	10	103 376 580,0
9	Kasbi tuman	40	6	0	6	53 146 700,0
10	Ko'kdala tumani	14	4	0	4	31 900 000,0
11	Mirishkor tumani	14	4	0	4	30 823 000,0
12	Muborak tumani	18	5	1	4	37 000 000,0
13	Nishon tumani	46	10	2	8	74 198 000,0
14	Chiroqchi tumani	24	0	0	0	0,0
15	Shahrisabz tumani	34	9	0	9	72 800 000,0
16	Yakkabog' tumani	47	13	3	10	114 065 970,0